

**YOSHLAR ORASIDA O‘ZBEK MUSIQA FOLKLORI HAQIDA  
TUSHUNCHA BERISH VA O‘RGATISH USULLARI.**

***Yunusova Shahnoza Baxtiyorovna***  
*Osiyo Xalqaro Universiteti magistri*  
[Shahnozabaxtiyorovna23@gmail.com](mailto:Shahnozabaxtiyorovna23@gmail.com)  
+998500500809

Yosh avlodning musiqiy iste’dodini, madaniyatini yuksaltirish, xalqning ma’naviy boyligi xalq qo‘shiqlari durdonalarini sevib o‘rganish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Musiqa folklori milliy madaniyatimizning kerakli bir qismi hamda xalqimiz turmushi va ijtimoiy va madaniy hayotning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib, milliy musiqa folklori ming yillar davomida xalqimizning ertangi va bugungi kuni hamda orzu-umidlari, intilishlarini o‘zida aks ettirib kelgan.

Bugungi kunda musiqa darslarida o‘quvchilarga musiqa folklori borasida ma’lumotlar berganda, avvalo, ularga milliy tariximiz, madaniyatimiz tarixi, o‘tmish ajdodlarimizning madaniy va badiiy-estetik didi borasida bilim va tasavvurlarni singdirishimiz lozim. Qadimdan bolalar musiqa folklori milliy turmush tarzimizni, bolalarning o‘yin faoliyati bilan bog‘liq madaniy dam olish vaqtini, shuningdek, ularning orzu va intilishlarini o‘zida mujassamlantirib kelgan. O‘zbek musiqa folklori qadim ildizlarga ega bo‘lib, xalqimiz madaniyatining bir qirrasini bo‘lib hisoblanadi. Ayniqsa, milliy bolalar musiqa folklorida aks ettirilgan asarlar o‘z mazmuni bilan xalqimizning hayotini, bolalarning orzu-o‘ylari, qiziqishlari, kelajakka ishonch bilan qarashni aks ettiradi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev islohatlarni yangi davrga xos vazifalarni belgilab berar ekan, “Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Xalqimizning qadimiy arxitektura yodgorliklari, xaykallar, rasmlar, an’anaviy urf-odatlar va boshqa tarzda avloddan avlodga o‘tib kelgan. Shu sababdan ham musiqa folklor san’atini rivojlantirish uchun qator islohatlar olib borilmoqda.

Umumta’lim maktablarida musiqa madaniyati darslari o‘quvchilarning musiqiy-axloqiy tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishda ustozlardan yuqori pedagogik faoliyatni talab etadi. Maktabda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik badiiy didini ma’lum bir mezonlarga mos darajada shakllangan deb tasavvur qilish qiyin. Shuni takidlash lozimki, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar musiqa janrlari va uning xususiyatlari to‘g‘risida juda oz ma’lumotga egamiz.

Musiqa san’ati asosida o‘quvchi shaxsining ma’naviy, axloqiy madaniyatini, milliy g‘urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Ijodiy mahorat, nafasat va badiiy didni o‘stiradi, fikrlash darajasini kengaytiradi. San’at va adabiyot esa inson qalbi me’mori ekanligi ko‘p bora tasdiqlangan. Azaldan xalq

qo‘shiqlari tarbiya vositasi sifatida navqiron avlodimizning yuksak ma‘naviyat ruhida kamol topishiga kuchli ijobiy ta‘sir ko‘rsatib kelmoqda.

Xalq qo‘shiqlari inson hissiyotiga kuchli ta‘sir eta olish xususiyatiga ega bo‘lib, axloqiy tarbiyaning muhim manbaidir. U o‘zining g‘oyaviy-badiiy mazmuni bilan yosh avlodni xalqimizning o‘tmishi va bugungi hayotini teran anglash, milliy qadriyatlarimizni qadrlash va hurmat qilishga o‘rgatadi. Shuningdek, u kishi ruhini va fikrini yuksaltiradi. Shaxsni ruhan poklaydi, boyitadi va komillik sari yetaklaydi. Qadimgi Yunoniston mutafakkirlari Platon va Aristotel ham har tomonlama rivojlangan komil shaxsni tarbiyalashda musiqaning o‘rniga alohida ahamiyat berishgan. Shuningdek, Sharq musiqashunoslik ilmimining asoschisi, uning rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan serqirra ijodkor, mutafakkir Abu Nasr al-Farobiy shaxsning ma‘naviy kamolati uchun muhim bo‘lgan axloq- odob tarbiyasi bilan birga musiqa tarbiyasi bilan ham shug‘ullanib, ushbu tarbiyalarning o‘zaro chambarchas bog‘liq holda olib borish g‘oyasini ilgari surgan. Zero, musiqa sehrining ijobiy ta‘siri, tarbiyaviy ahamiyati bolaning yurish-turishida, hatti-harakatida yaqqol nomoyon bo‘ladi.

Shu o‘rinda musiqa folklor san‘atining hozirgi kundagi jamiyatimizdagi tutgan o‘rni va hozirda musiqa folkloriga qiziq va e‘tibor qay darajada ekanligini bilish maqsadida statistika ma‘lumotlariga nazar tashladik. Bu shuni ko‘rsatdiki, mustaqillik davridan hozirga qadar San‘at maktablari, San‘at texnikumlari, San‘at institutlarining ko‘payayotganligi, qolaversa, folklor san‘atiga doir festivallarning o‘tqazilishi so‘zimizning isbotidir.

Folklor san‘atining o‘rganilish bosqichlarini sanaydigan bo‘lsak, avvalo, uzoq asrlardan bizgacha yetib kelgan bolalar qo‘shiqlari o‘zbek xalqi og‘zaki badiiy ijodining tarkibiy qismini tashkil etadi. Ularda yosh avlodning jo‘shqin hayoti, yil fasllari va turlari bayramga munosabati o‘ziga xos tarzda ifoda etiladi. Bolalar qo‘shiqlarining ko‘pchiligi o‘yin bilan yoki o‘yin vaziyatlarida aytilgan. Jumladan, bahor faslida kuylangan “ Binafsha”, “ Chittigul”, “ Yomg‘ir yog‘aloq”, “ Laylak keldi” singari qo‘shiqlar shular jumlasidandir. Masalan, bahor chog‘i yomg‘ir shivalab yog‘arkan, shu fursatda quvongan bolalar o‘yinga berilib, mutoyiba bilan “ Yomg‘ir yog‘aloq” qo‘shig‘ini kuylaydilar.

Musiqa merosi tarkibidan joy olgan folklor namunalari orasida o‘zbek xalqining urf-odatlariga asoslangan marosim qo‘shiqlari alohida ahamiyat kasb etadi. Odatda, ular o‘z xususiyati doirasida quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Bolalar musiqa folklori: “ Boychechak”, “ Oq terakmi, ko‘k terak”, “ Chamandagul” kabi qo‘shiqlar keng ommalashgan;
2. Mehnat bilan bog‘liq qo‘shiqlar: “ Mayda mayda”, “ Yozi”, “ Xo‘sh-xo‘sh”, “ Charxim” kabilar:

3. To‘y marosimlari bilan bog‘liq qo‘shiqlar: “Yor-yor”, “Kelin salom”, “To‘ylar muborak” va boshqalar.;
4. Afsuniy qo‘shiqlar yomg‘ir chaqirishda ijro etilgan: “Sut xotin” va quyosh tutilishida aytiladigan qo‘shiqlar.

Shu bilan birga, alla, lapar, terma, qo‘shiq janrlaridagi musiqiy namunalar ham o‘zbek folklor musiqasining asosiy janrlaridan hisoblanadi. Ajdodlarimizdan estalik bo‘lib qolgan xalq og‘zaki ijodiyati va qo‘shiqlari shunday ma‘naviy bisotimizning bir qismini tashkil etadi. Yosh avlodga milliy rux, bag‘ishlaydigan bu ulkan merosning salmoqli bir bo‘lagini qo‘shiqlar tashkil qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matyoqubov O. “Forobiy Sharq musiqasi asoslari haqida”.-T.,1986 yil.
2. Isroilov Sh. “Milliy qadriyatlar”
3. “Maktabgacha tarbiya” jurnali.1992yil. 3-son.
4. H.Nurmatov. “Musiq va estetik madaniyat” Toshkent.T.D.P.U.1995 yil
5. O‘quvchilarga ma‘naviy-axloqiy tarbiya berish jarayonida Buxoro musiq folkloridan foydalanish yo‘llari. Toshkent.2010
6. Rajabov I. “Maqomlar masalasiga doir “.-T., 1963 yil.